O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

2026-yil 25-26-sentabr

(2-qism)

JIZZAX-2026

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2026-yil 25-26-sentabr. 315-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., т.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD) dots., Norbekova B.Sh. p.f.f.d.(PhD) dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

yaqinlashtirish, pedagogik vaziyatlardan foydalanish, amaliyotning uzviyligini ta’minlash, mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish, refleksiv topshiriqlarni qo‘llash hamda aniq mezonlarga asoslangan baholashni yo‘lga qo‘yish zarurligi aniqlandi.

Kompetensiyaviy yondashuvning amaliy qiymati shundaki, u bo‘lajak o‘qituvchini faqat bilimlarni o‘zlashtirgan bitiruvchi emas, balki real pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan, o‘z faoliyatini tahlil qiladigan va kasbiy rivojlanishga tayyor mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu asosda kelgusida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik modeli, uning mezon va ko‘rsatkichlari, bosqichlari hamda tajriba-sinov metodikasini ishlab chiqish ilmiy-amaliy jihatdan muhim yo‘nalish sifatida belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti,2006.
2. Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. — Toshkent: O‘qituvchi,2010.
3. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2011. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. — Toshkent:Fan,2006.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Moliya, 2003.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar.—Toshkent:Iste’dod,2008.

NIKOH OLDI OMILLARI XUSUSIYATLARI VA ULARNING NIKOH MUSTAHKAMLIGIGA TA’SIRI

Burxonova Umida Inomovna
O‘zMU Jizzax filiali “Psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Mo‘minova Muhayyo G‘ayrat qizi
O‘zMU Jizzax filiali “Oila psixologiya”si yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya Ushbu tezisda yigitlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda ularning nikoh oldi omillari, yetuklik va uning turlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Nikoh oldi omillari, .oilaviy hayotga yetukligi, jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, psixologik jinsiy yetilish.

Abstract: This thesis discusses premarital factors, maturity, and its various types in preparing young men for independent family life. Particular attention is paid to the factors that contribute to readiness for marriage and family life.

Keywords: premarital factors, maturity for family life, sexual maturity, legal maturity, economic maturity, moral and ethical maturity, psychological maturity.

Oila deb atalmish muqaddas makon, “oila qasri”ning mustahkamligi shu qasrning poydevori bo‘lmish nikoh oldi omillari xususiyatlariga, ularning qay darajada to‘g‘ri va mustahkam qo‘yilishiga bog‘liq. Agar shu poydevor yetuk, mustahkam bo‘lsa, uning ustida qurilgan imorat ham ko‘rkam, yorug‘, unda istiqomat qiluvchilarga qulaylik, xotirjamlik, tinchlik, huzur-halovat bag‘ishlaydigan bo‘ladi. Hech bir devor yoki uy poydevorsiz bo‘lmaganidek,

bo‘lajak oilaning qurilajak oilaning ham o‘ziga xos poydevorlari bor. Ular shu oilaning yuzaga kelishiga, qurilishiga asos bo‘lgan nikoh oldi omillaridir. Agar shu nikoh oldi omillarining oilani yuzaga kelishiga ta’siri noo‘rin bo‘lsa, u shoshilinch, bo‘sh, qiyshiq qurilsa, uning ustiga o‘rnatilgan oila imoratining devori ham qiyshiq va omonat bo‘lib boraveradi va u shu imoratning bir kuni kelib qulashi, buzilib ketishi xavfini tug‘diradi. Bunday poydevor ustiga qurilgan imorat qulab tushmagani, buzilib ketmagani taqdirda ham unda istiqomat qiluvchilarga xotirjamlik, tinchlik, quvonch baxsh eta olmaydi. Ular doimo qandaydir bir xavotirda, hadikda, noqulaylikda, hijolatda yashashlariga to‘g‘ri keladi.

“Gap nikoh oldi omillari haqida borar ekan, shuni ta’kidlab o‘tish joizki, nikoh oldi omillari u yoki bu nikohning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, fiziologik, ma’naviy, axloqiy va bugungi kunlarimiz uchun eng muhim bo‘lmish psixologik omillarni o‘zida mujassamlashtirgan, ko‘p qirrali omillar kompleksidan iborat bo‘lib, oila qurayotgan yoshlarning, shu o‘zlari qurayotgan oilaviy hayotlariga qay darajada “yetilgan”liklarini belgilab beradi. Bu yerda eng muhimi shu yoshlarning oilaviy hayotga, nikoh talablariga qay darajada javob bera olishligi nazarda tutiladi”[13]

Nikohga yetuklik tushunchasi ham o‘z navbatida o‘ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam doimo rivojlanib, takomillashib boruvchi, kasb-hunar faoliyatida yoki ma’naviy va axloqiy rivojlanishida muntazam yangidan yangi cho‘qqilarga erishib boruvchi mavjudotdir. Agar odamni u yoki bu faoliyatga “to‘la yetukligi” haqida gapiradigan bo‘linsa, demak bu uning ma’lum bir chegaraga erishgani va undan ortiq rivojlanish mumkin emasligini bildiradi. Shuning uchun ham odamning nikohga yoki biron-bir faoliyatga yetukligi haqida gapirilganda “yetuklik” tushunchasi tom ma’noda o‘rinli bo‘la olmaydi. Shuning uchun ham odamning “yetukligi”, ayniqsa nikohga, oilaviy hayotga “yetukligi” haqida gapirilganda bu tushunchadan ma’lum bir umum qabul qilingan standart, o‘rtacha me’yor, ma’lum bir shartli “o‘lchov birligi”, ko‘rsatkichlar va shu kabilar sifatidagina foydalaniladi. Masalan, barcha o‘quv yurtlari (maktab, litsey, kollej, institutlar) uchun bitirish imtihonlari (davlat imtihonlari tizimi, diplom ishlari himoyasi tizimlari kabilar) mavjud bo‘ladi va ular yordamida bitiruvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘rtacha bilimlar va malaka yig‘indisini aniqlash mumkin bo‘ladi. Bu esa ularga keyinchalik yana o‘qishni davom ettirish yoki ma’lum bir mutaxassislik bo‘yicha ishlashi mumkinligi haqida ma’lum bir huquq beradi. Shu nuqtayi nazardan olinganda “yetuklik” — rivojlanishning ma’lum bir bosqichi, fazasi, chegarasiga

[13]Beknazarov I. “Oilada farzand va ota-ona munosabatlari”.Toshkent - 2021. –B.98

yetilganlikning sifatiy va miqdoriy xarakteristikasini ma’lum bir aniqlikda belgilab beruvchi ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi.

Nikoh oldi omillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1.Oilaviy hayotga yetukligi.

2.Oila qurish motivlari.

3.Nikohgacha tanishish muddati.

4.Nikoh qurish yoshi.

5.Nikoh qurish shartlari.

6.Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari.

Odamning nikohga, oilaviy hayotga yetukligi masalasi esa o‘ta murakkab biron-bir qat’iy me’yor bilan o‘lchab bo‘linmaydigan individual xarakterga ega bo‘lgan ko‘rsatkichdir. Shu keltirib o‘tilganlarning o‘ziyoq nikoh oldi omillari qay darajada murakkab xarakterga ega bo‘lgan muammolardan ekanligini ko‘rsatib turibdi. Hozirgi zamon oilasining ijtimoiy psixologik muammolarini yoritishga bag‘ishlangan psixologik adabiyotlarda nikoh oldi omillarining turlicha shakllari, ko‘rinishlari farqlanadi.

“Nikoh oldi omillari qatoriga shu oila qurayotgan yoshlarning: oilaviy hayotga yetukligi; ularning oila qurish motivlari; ularning oila qurishgunlariga qadar bir-birlarini tanishlik muddati (qancha vaqt bir-birini tanishligi) shartlari va sharoitlari; ularni o‘zlarining bo‘lg‘usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlari kabilarni kiritish mumkin. Albatta, bu omillarning har biri turli yoshlarda turlicha xarakterda bo‘lishi mumkin, shu bilan birga ularning har biri o‘z navbatida yana bir necha turlarga farqlanadi. Masalan, nikohga yetuklik deyilganda oila quruvchi yoshlarning: jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkin. Bularning orasida huquqiy, jinsiy yetuklik ko‘rsatkichlari yetarlicha aniq alomatlarga, belgilarga ega bo‘lgan va bular haqida tegishli huquqiy, tibbiy, psixologik adabiyotlarda ko‘plab ma’lumotlar berilgan jihatlar bo‘lsa, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, psixologik jihatlar biroz murakkabroq, qat’iy bir ko‘rsatkich, chegaraga ega emasligi bilan xarakterlanadi”[14]

Jinsiy yetilish shaxsning qat’iy jinsiy ehtiyojlarning shakllanishiga olib keladi. Bu davrga kelib bolalarda ikkilamchi jinsiy alomatlar namoyon bo‘la boshlaydi. Jinsiy sekretsiya bezlarining faolligi ortadi. Qiz bolalarda oylik sikllari (menstruatsiya), o‘g‘il bolalarda pollyutsiyalar ro‘y bera boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, ularda pubertat davr boshlanadi. Demak bu davrga kelib bolalarning moddiy va ma’naviy qiziqishlarining o‘sib borishi bilan bir qatorda jinsiy ehtiyojlar shaxs faolligining kuchli manbalaridan hisoblanib, u turli psixologik va ijtimoiy shakllarda namoyon bo‘la boshlaydi. Jinsiy maylning, jinsiy ehtiyojning yuzaga kelishi odamni biologik tomonlama rivojlana boshlashining o‘ziga xos bosqichi sanaladi. Ular bola ruhiyatining rivojlanishiga, uni shaxsining shakllanishiga, hayot faoliyatining boshqa jihatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Jinsiy tarbiya masalasiga ko‘pincha yo alohida e’tibor talab qilinmaydigan va hech qanday qiyinchilikni yuzaga keltirmaydigan, har bir yosh guruhi uchun osongina

[14]Salayeva M.S “O‘zbek oilalaridagi ota – ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari”. Toshkent - 2005 y. –B.59

o‘zlashtirish mumkin bo‘lgan, yoki o‘ta shaxsiy, intim, ko‘pchilik orasida, ayniqsa bolalar orasida muhokama qilib bo‘lmaydigan masala tarzida qaraladi. Shu kabi mulohazalar qator mamlakatlarda, ayniqsa sobiq ittifoqda jinsiy tarbiyaga oid materiallarni, bunga taalluqli tadbirlarni maktab dasturidan chiqarib tashlanishiga asos bo‘lgan. Shu o‘rinda jinsiy tarbiyani, organizmning faoliyati haqidagi bugungi kunda har bir odam o‘zlashtirishi, bilishi zarur bo‘lgan sanitar-gigiyenik, psixogigiyenik ma’lumotlar bilan uzviy bog‘liq tarzda qaralishi maqsadga muvofiqdir. Oilaviy hayotda esa jinsiy hayot psixologiyasi haqidagi bilimlarga ega bo‘lish o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masaladir.

Psixologik soha mutaxassislari tomonidan berilgan ma’lumotlarni kompleks tahlil qilgan holda aytish mumkin, har bir to‘rtinchi ajralishgan er-xotinlarda (ajralishlarning 29%ida) jinsiy mutanosiblikning u yoki bu tarzda buzilishi (er-xotinning jinsiy nomutanosibligi) sabab bo‘lmoqda.

Oila kichik guruh sifatida, emotsional munosabatlar tizimining ahamiyatligi bo‘yicha va ijtimoiy institut sifatida shaxs psixologiyasi fanida, ijtimoiy psixologiya fanida va sotsiologiya fanida ham o‘rganiladi. Bola va ota-ona munosabatlari, tarbiya stili, bolaning oilada rivojlanishi yosh davrlari va oila psixologiyasining asosiy o‘rganish predmeti hisoblanadi. Oila ichidagi o‘zaro aloqalar boshqa har qanday guruh ichidagi o‘zaro aloqalarga qaraganda boshqacha bo‘lib – u qarindoshlik rishtalari bilan bog‘langandir.

Er-xotin o‘zaro munosabati tahlil qilinar ekan, sotsiologlar diqqat markazida nikoh tendentsiyalari, ajralishlar, oila siyosati tahlili tursa, oila psixologlari esa, nima sababdan odamlar bir-birlarini yoqtirib qolishadi, qanday qilib bir-birlari bilan kelishib, moslashib yashab ketishadi degan muammolarni tadqiq qilish turadi. Individning shaxsiy hayoti sotsial psixologga qaraganda oila psixologini ko‘proq qiziqtiradi. Shaxsni tadqiq qiluvchi psixologlar o‘z diqqatlarini individlarning farqlari va ularning ichki individual mexanizmlari esa oila tizimida paydo bo‘lgan va o‘sib rivojlanayotgan individga o‘z diqqatlarini to‘playdilar.

Xulosa qilib aytganda, nikoh oldi omillari oilaning shakllanishi va nikohning barqarorligini belgilovchi muhim ijtimoiy-psixologik omillar majmuini tashkil etadi. Oilaviy hayotga yetuklik, nikoh motivlari, nikohgacha bo‘lgan tanishuv muddati, nikoh yoshi, nikoh shart-sharoitlari hamda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar bo‘lajak er-xotinning o‘zaro moslashuvi va munosabatlar barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Nikohga tayyorgarlikning jismoniy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy va psixologik jihatlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning yetarli darajada shakllanganligi oilaviy munosabatlarning sog‘lom rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi. Ayniqsa, nikoh qurish motivlarining anglanganligi, oilaviy mas’uliyatni qabul qilishga tayyorlik va bo‘lajak oilaviy hayot haqidagi real tasavvurlarning mavjudligi nikoh mustahkamligining muhim omillardan biridir.Shu bois yoshlarni nikoh va oilaviy hayotga kompleks tayyorlash, ularda psixologik, ma’naviy-axloqiy hamda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish oilaning barqarorligini ta’minlashning muhim sharti sifatida qarashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Arapboyeva D. Arapboyeva V. “Sharq mutaffakkirlarining oila va tarbiya xaqidagi qarashlari”. Toshkent-2015 –B.79

2. Beknazarov I. “Oilada farzand va ota-ona munosabatlari”.Toshkent - 2021. –B.98.

3. Salayeva M.S “O‘zbek oilalaridagi ota – ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari”. Toshkent - 2005 y. –B.59

MAMLAKATIMIZDA YOSH OTA-ONALANING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHNING DOLZARBLIGI

Tolliboyev Dilshod Muxammadievich
O‘zMU Jizzax filiali katta o‘qituvchisi
+99899 556-11-43
Aliqulov Bekzod Abduxoliq o‘g‘li
bekzodaliqulov931@gmail.com
O‘zMU Jizzax filiali assistenti
+99894 349-19-94

Annotatsiya: Muallif ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatda yosh avlodni tarbiyalashda yosh ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlardan xabardor bo‘lishining ahamiyati haqida fikr bildirgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik bilim, psixologik bilim, psixologik savodxonlik, dunyoqarash.

Bugun insoniyat XXI asrda ya’ni axborotlashgan asrda yashamoqda. Axborot oqimining tezligi shiddat bilan jadallashmoqda. Har narsaning yaxshi va yomon tomoni bo‘lganidek, axborotlashgan asrning ham yaxshi va yomon tomoni mavjud. Yaxshi tomonlari hammamizga ma’lum, biz bugun maqolamizda axborotlashgan asrning yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatayorgan salbiy oqibatlari haqida fikrlashmoqchimiz. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqol bugun o‘z ahamiyatini birozgina yo‘qotayotganday, chunki bugungi kunda oilaviy tarbiya yosh avlodning tarbiyasida asosiy kuch bo‘lsada, farzandlarimiz tarbiyasiga tashqaridan turli xil ta’sirlar ham o‘z kuchini ko‘rsatadi. Bunday ta’sirlar qatoriga albatta jangarilikni vahshiylikni aks ettirgan internet o‘yinlari, internetdagi tezkor yangiliklar, jangarilikni, fohishabozlikni aks ettirgan chet el kinolari, teleseriallar, kliplar kiradi. Bu esa o‘z-o‘zidan yosh avlodni tarbiyalashda bir muncha qiyinchiliklar tug‘dirishi tabiiy. Shuning uchun, turmush qurayotgan, bo‘lajak ota-onalarni, yosh ota-onalarni pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish bugunning eng ahamiyatli vazifalaridan biri deb hisoblaymiz. Chunki, bugungi kunning o‘spirin yosh yigit-qizlari ertaga ota-ona, bu yosh ota-onalar farzand tarbiyasi va uni parvarishi haqida bilimlarga ega emasligi esa katta-katta muammolarga olib kelishi mumkin. Biz bilamizki hozirgi kunda oliy ma’lumotli, pedagogik psixologik bilimlar bilan qurollangan yosh yoki bo‘lajak ota-onalardan, ma’lumoti o‘rta yoki